

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



«Tasdiqlayman»

NamMQI rektori:

Sh.Ergashev

07 2024 yil

FALSAFA FANINING
O'QUV DASTURI

- Bilim sohasi: 700 000-Muhandislik ishlov berish va qurilish sohalari
- Ta'lim sohasi: 730 000-Arxitektura va qurilish
- Ta'lim yo'nalishi: 60730300-Qurilish muhandisligi (bino va inshootlar qurilishi)
60730900-Gidrotexnika qurilishi (turlari bo'yicha)

Fan/modul kodi FALB2041	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili o'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulot- lari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Falsafa	60 (30 m/30 s)	60	120
2	<p>I. Fanning mazmuni - Falsafa fan sifatida tarixiy va zamonaviy ijtimoiy siyosiy qarashlar, voqea hodisalarning mohiyatini tushunish va ularga munosabat bildirish mahoratini shakllantiradi. Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumiy ma'naviy muhitning balki, har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi maqsad va ehtiyojlarni o'zgarishi hamdir. Falsafa dunyoqarash sifatida "so'zlar, so'zlar va yana so'zlar" orqali inson ongiga ta'sir etish, unga fikrlash va yo'l tanlash mahoratini o'rgatadi.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarining oliy ta'lim tizimida egallagan dunyoviy, falsafiy va diniy bilimlardan ijtimoiy hayotda maqsadli foydalanish malakalari va to'g'ri fikrlash mahoratini o'rgatishdan iborat;</p> <p>Fanning vazifalari - falsafiy, ilmiy va diniy bilimlarning tafakkur uslubining o'zgarishiga ta'siri; tabiiy ilmiy bilimlarning ijtimoiy ahamiyati; texnika va texnologiyalarning inson pragmatik ehtiyojlariga javob sifatidagi evolyutsiyasi; milliy qadriyatlar, madaniyat va ommaviy madaniyatning o'zaro alosasi va farqini; dunyoni bilish, haqiqatni anglashda amaliyot va faoliyat uyg'unligini ta'minlashning ahamiyati, to'g'ri fikrning ijobiy maqsadlarga yo'unaltirishdagi o'rni; diniy madaniy an'analarda oila va farzand tarbiyasiga oid g'oyalarining ahamiyati; diniy bilimlarning fanatizm (mutaassiblik), dindorlik, shamanizm, terrorizmdan farqi; diniy e'tiqodning yo'nalishlari; global jarayonlar va barqaror taraqqiyot omillarining o'zaro mutanosibligi; ta'lim falsafasi va falsafa ta'limining dunyoqarashni shakllantirishdagi o'rni; yangi taxrirdagi konstitutsiyaning mazmun mohiyatini bilish, global korrupsiyaning sabablari va shakllarini bilish va ularga qarshi kurashish; dunyoviy bilim va malakalarni yangilanayotgan O'zbekistondagi islohotlar jarayonida to'liq namoyon qilish, ijtimoiy mas'uliyatni xis qilishni o'rgatishdan iborat.</p>			

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-MODUL. FALSAFA va MANTIQ

1-mavzu. Falsafa va uning jamiyat hayotidagi roli

Falsafaning predmeti, asosiy masalalari, tuzulmasi, funksiyalari. Falsafaning paydo bo'lishi va jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati. Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va asosiy funksiyalari. Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mifologik va diniy dunyoqarash, falsafiy va ilmiy dunyoqarash, ularning o'aro aloqadorligi hamda o'ziga xosligi. Raqamli sivilizatsiya sharoitida yoshlar dunyoqarashida axboriy tahdidlarga qarshi imunitetni shakllantirishda falsafaning ahamiyati.

2-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyot bosqichlari: Sharq va g'arb falsafasi

Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo'lishi. Misr va Bobil falsafiy maktablari. Qadimgi Hindistonda falsafiy maktablar. Markaziy Osiyoda "Avesto" falsafasi. Xitoy falsafasi.

An'anaviy ilmlar taraqqiyoti. Islomiy ilmlar rivojida Xuroson va Movarounnahrda yetishib chiqqan olimlar hissasi, falsafada arab-musulmon yo'nalishining vujudga kelishi. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino falsafasining umumiy xususiyatlari. O'rta asr Sharq falsafasi va uyg'onish davri xususiyatlari. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy falsafasi.

Yangi davr Sharq tasavvufi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg'or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar. Sharq istilosi bilan bog'liq uyg'onish harakatlari.

Qadimgi Yunon-Rim falsafiy maktabi. Milet maktabi, uning Misr-Bobil, Hind falsafay ildizlari bilan bog'liqlik xususiyatlari.

Ilk o'rta asrlar falsafiy tafakkur rivojida appologetika va patristika, sxolastika, nominalizm va realizm. Ilk o'rta asr G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari. O'rta asrlar Yevropasida uyg'onish davri va falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari.

Yangi va eng yangi davr falsafasining ustivor yo'nalishlari. Yangi davr G'arb falsafasidagi asosiy muammolar. XVIII asr Yevropa falsafasining ma'rifiy xususiyatlari. XX-XXI asr G'arb falsafasining oqimlari.

3-mavzu. Borliq falsafasi (ontologiya)

Borliqni ta'riflash muammosi. Tabiiy ilmiy fanlar va falsafa tarixida "Borliq" kategoriyasining o'rganilishi. Borliq, mavjudlik va reallik. Borliq va yo'qlik dialektikasi. Borliq shakllarining tasnifi. Biosfera va Noosfera haqidagi ta'limotlar, koevoluyon va invayronmental nazariyalar. Borliqning o'zgarish asosi (substansiya va substrat) tushunchalarining mohiyati. Borliq ibtidosini sifatiy va miqdoriy jihatdan tushuntirishga oid konsepsiyalar tasnifi (Monizm, dualizm, plyuralizm, materializm, idealizm). Borliqda shakllanish, o'zgarish, rivojlanish va taraqqiyotning o'zaro aloqadorligi. Makon, vaqt va harakat tushunchalari. Materiya (modda) falsafa va tabiatshunoslikning kategoriyasi sifatida. Ijtimoiy makon va ijtimoiy vaqt.

4-mavzu. Rivojlanish falsafasi

Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari. Falsafaning asosiy qonunlari. Qarama-qarshilik birligi va kurashi qonuni. Miqdor va sifat o'zgarishlari dialektikasi. Inkorni inkor qonuni va vorisiylik. Kategoriya tushunchasi va ularning turlari. Falsafa va fan kategoriyalarining tasnifi. Ontologik va munosabatdosh kategoriyalar. O'zbekistonda "Yashil makon" umummilliy dasturining atrof-muhitni saqlab qolishdagi ahamiyati

5-mavzu. Bilish falsafasi (gnoseologiya)

Bilish jarayonining mohiyati va asosiy mezonlari. Bilish jarayoniga oid yondashuvlar tasnifi: otpimizm, skeptitsizm va agnostitsizmning mohiyati. Bilimning asosiy turlari va shakllari. Bilishda sub'ekt va ob'ektning o'zaro aloqasi. Bilish faoliyat turi sifatida. Bilishdagi qarama-qarshiliklar. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy, intuitiv, bilish darajalarining o'zaro aloqasi va farqi. Haqiqat bilish nazariyasining bosh mezoni. Bilish natijalarini baholashning ahamiyati. Amaliyot haqiqatning mezoni. Bilish metodologiyasi. Ijtimoiy gumanitar fanlar metodlari. Hozirgi zamon metodologiyasi.

6-mavzu. Mantiq fanining predmeti. Formal mantiqning asosiy qonunlari

Mantiq tushunchasi va unga xilma-xil yondoshuv: ob'ektiv mantiq, sub'ektiv mantiq. Mantiq tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan sohasi sifatida. Mantiqiy tafakkur evolyutsiyasi: formal, dialektik va noklassik mantiq. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari. Formal mantiqning predmeti va strukturasi. Tafakkur qonunlari, ularning mazmuni va to'g'ri fikr yuritishdagi ahamiyati. Ayniyat qonunining to'g'ri fikrlashdagi o'ri. Ayniyat

qonuni buzilganda kelib chiqadigan xatolar. Fikr chinligini aniqlashda nozidlik qonunining o'ri. Uchinchi istisno qonunining mohiyati va asosiy talablari. Fikrlarni dalillashda yetarli asos qonunining ahamiyati

7-mavzu. Tafakkur shakllari: tushuncha, hukm, xulosa.

Tushuncha - predmetlarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi mantiqiy shakl. Tushunchaning mazmuni va hajmi, ular o'rtasidagi teskari nisbat. Tushunchaning turlari va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar. Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish. Tushunchani ta'riflash (definitsiya). Nominal va real ta'riflar. Tushunchalarni bo'lishning maqsadi va tuzilishi. Bo'lishning turlari. Hukm tafakkur shakli sifatida. Hukmning tarkibi va xususiyatlari. Oddiy va murakkab hukm. Hukmlar o'rtasidagi munosabatlar. Modallik hukmlari. Norma va hukm. Me'yor voqealikka bo'lgan munosabatning mantiqiy ifodasi. Savol va javobning muhokama yuritishdagi ahamiyati. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi. Xulosa chiqarishning tuzilish., Xulosa chiqarish turlari. Induktiv xulosa chiqarish. Analogiya, uning turlari. Analogiya va modellashtirish. Dalillash va ishonch-e'tiqodning shakllanish jarayoni.

8-mavzu. Jamiyat va qadriyatlar falsafasi

Jamiyat tushunchasining mohiyati va uning rivojlanish bosqichlari. Jamiyatning paydo bo'lishiga oid qarashlar. Jamiyatning rivojidagi iqtisodiy ijtimoiy tengsizlikning sabablari. Jamiyat rivojining iqtisodiy asoslari, ijtimoiy ishlab chiqarishning mohiyati. Jamiyat rivojining ma'naviy va ijtimoiy asoslari. Jamiyat rivojining siyosiy asoslari. Fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi va demokratiya. Jamiyat taraqqiyotida tarixning mazmuni, yo'nalishlari va konsepsiyalari. Sivilizatsiya tushunchasi va uning tiplari. Sivilizatsiyalar tiplarining tasnifi.

Qadriyat tushunchasining ma'nosi va uning umumiy tavsifi. Qadriyat nazariyasining shakllanish tarixi. Qadriyatlarining turlari. Oilaning qadriyatga doir jihatlari. Ajralish va uning axloqiy kamolotga salbiy ta'siri. Gender tengligini taminlashda inson mehnatining qadrlanishining ahamiyati. Qadriyatlarini baholash. Uchinchi ming yillikda qadriyatlarining transformatsiyasi. Jamiyatning devalvatsiyasi (qadrlanish va qadrsizlanish). Sog'likning qadriyat sifatidagi ahamiyati. Sog'lom turmush tarzining qadriyatli jihatlari.

9-mavzu. Inson falsafasi (falsafiy antropoliya)

Falsafa tarixida insonning mohiyatiga oid qarashlar tasnifi. Inson mohiyatiga fan nuqtai nazaridan yondashuv. Inson, individ, shaxs tushunchalarining o'zaro aloqadorligi. Ongning mohiyati, strukturasi va funksiyalari. Onglilik va ongsizlik dialektikasi. Insonning bioijtimoiy, psixologik mohiyati. Falsafiy antropologiyaning inson haqidagi ta'limot sifatidagi mohiyati. Hayotning ma'nosi va unda insonning vazifasi. Hayotni tark etish bosqichlari (suitsid, parasuitsid, evtanaziya, esxatologiya). Faoliyatda onglilik va maqsadga muvofiqlik. Muloqot faoliyat sifatida. Mehnat, o'yin, ijod faoliyat turi. Inson faoliyatini tartibga solishning ahamiyati. Inson-jamiat-davlat tamoyilining falsafiy mazmuni.

2-MODUL. AXLOQ VA NAFOSAT FALSAFASI. KORRUPSIYA - HOZIRGI ZAMON GLOBAL MUAMMOSI SIFATIDA

10-mavzu. Axloq falsafasi (Etika)

Etikaning mohiyati va ahamiyati. Zamonaviy etikaning asosiy sohalari: metaetika, normal etika, amaliy etika. Etikadagi qadriyatlar va kategoriyalar. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik. Kasbiy (professional) etika. Kasbiy etikaning muammolari. Kasbiy axloq va mehnat etikasi. Kibernetika. Tibbiy etika. Yuridik etika. Ijtimoiy hayot etikasi. Etikada ijtimoiy adolat tamoyili. Siyosat va axloq o'rtasidagi munosabat. Ekologik etika. Ishbilarmonlik etikasi. Davlat tashkilotlari va davlat xizmati tizimidagi kasbiy etika. Bioetikaning axloqiy jihatlari.

11-mavzu. Nafosat falsafasi (Estetika)

Dunyoni estetik idrok etishning mohiyati. Falsafa tarixida estetik qarashlar evolyusiyasi. XX-XXI asrda estetikaning asosiy yo'nalishlari va kategoriyalari. Estetik did va olamni estetik idrok etishning shaxs kamolotiga ta'siri. Estetikaning zamonaviy yondashuvlari. Estetika va san'at. San'atning funksiyalari. Amaliy san'atning estetik jihatlari. Estetika va dizayn. Reklamanning estetik didni tarbiyalashdagi roli. Xalq amaliy san'atining estetik jihatlari. Olamni virtual va vizual estetik idrok etishning farqlari. Badiiy asarni estetik idrok etishning darajalari. San'atdagi inqiroz (dehumanizatsiya). Tushkunlik san'ati va undan chiqish mahorati.

12-mavzu. Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot

Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot jarayonlarining mohiyati. Barqaror taraqqiyotni ta'minlashda globallashuvning ijobiy va salbiy yo'nalishlari. Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Globallashuvning fundamental asoslari va jihatlari. Global muammolar globallashuvning oqibati. Ijtimoiy rivojlanishning global jarayonlarga ta'siri. Global tendensiyalarni anglashning ahamiyati. Global muammolarning mezonlari va darajalari. Global muammolarning tasnifi. Global jinoyatchilik va uning oldini olishda xalqaro hamkorlikning zarurati. Sportning globallashuvi. Pandemiya - XXI asrning global muammosi va uning oqibatlari. Nanotexnologiyalar va Biometrik identifikatsiya qilish texnologiyalarining jamiyat taraqqiyotiga ta'siri. Global muammolarni bartaraf etishda xalqaro kuchlar birlashuvining ahamiyati. Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar uyg'unligi.

13-mavzu. Korruptsiyaga qarshi kurashning jahon tajribasi

Korruptsiya tushunchasining ma'nosi va uning tarixiy ildizlari. Dunyo bo'yicha korruptsiya holatining tasnifi. Korruptsiyaning shakllari va sabablari. Firibgarlik korruptsiya shakli. Korruptsiyaning ijtimoiy hayotdagi ko'rinishlari. Siyosiy va g'oyaviy korruptsiya - xavfsizlikka tahdid. Iqtisodiy korruptsiya va uning namoyon bo'lish shakllari. Kadrlar korruptsiyasi va uni bartaraf etish mexanizmlari. Ta'lim va fan tizimidagi korruptsiyaning oqibatlari. Huquq tartibot organlari, jamoat tashkilotlaridagi korruptsiyaning sabablari. Xalqaro korruptsiya iqtisodiy-siyosiy manfaatlar to'qnashuvi oqibati sifatida. Ijtimoiy hayotdagi korruptsiyaning amal qilish sohalari. Birlashgan millatlar tashkilotining korruptsiyaga qarshi Konvensiyasining (Nyu-York, 2003 yil 31 dekabr) mazmuni va mohiyati. Korruptsiyaga qarshi kurashning jahon tajribasi: Singapur, Yaponiya, Shvetsiya va Finlandiya modellari.

14-mavzu. O'zbekistonning korruptsiyaga qarshi kurash siyosati

Korruptsiyaga qarshi kurashda tizimli yondashuvning zarurati. Korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro huquq normalarining O'zbekiston qonun hujjatlariga implementatsiya qilinishining ahamiyati va uning iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari. "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi. O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashning tashkiliy asoslari. Korruptsiyaning ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyat sifatidagi tahlili va uni bartaraf etishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning ahamiyati. Korruptsiya namoyon bo'lishining

ijtimoiy sohalari, psixologik jihatlari. Korrupsioner xulq atvorining umumiy tavsifi. Korrupsiyaga qarshi kurashning tarixiy an'analari.

15-mavzu. Yangi taxrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun mohiyati. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.

Yangi taxrirdagi Konstitutsiyaning yaratilishiga bo'lgan zarurat. Konstitutsiyaviy komissiya va uning faoliyati. Konstitutsiya loyixasining umumxalq muhokamasi. Konstitutsiyaning qabul qilinishi. Konstitutsiyada jaxon konstitutsiyaviy rivojlanish tajribalari hamda milliy qadriyatlarining aks etishi. Konstitutsiyaning tuzilishi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni. Ijtimoiy davlat tushunchasi. Dunyoviy davlat tushunchasi. O'zbekistonda taraqqiyotning yangi bosqichida yangi tahrirdagi konstitutsiyaning ahamiyati Yangi

Konstitutsiyaga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish zarurati va tartibi. Davlat suvereniteti va uning konstitutsiyaviy asoslari. Xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy asoslari. Konstitutsiya va qonunning ustunligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobida rivojlanish modeli va Uchinchi renessans tushunchalari. Yangi ma'naviy makon va ma'rifatli jamiyat, kuchli ijtimoiy siyosat tushunchalari. Yangi O'zbekiston orzusi, Yangi O'zbekiston fenomeni, Yangi O'zbekiston: yangilanish va taraqqiyot omillari. "Davlat-inson uchun" tamoyili – demokratik islohotlar mezon.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

- 1-mavzu. Falsafa va uning jamiyat taraqqiyotidagi roli
- 2-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq va G'arb falsafasi
- 3-mavzu. Borliq falsafasi
- 4-mavzu. Rivojlanish falsafasi va umumiy kategoriyalari
- 5-mavzu. Bilish falsafasi (gnoseologiya).
- 6-mavzu. Mantiq va til dialektikasi
- 7-mavzu. Formal mantiqning asosiy qonunlari hamda tafakkurning universal mantiqiy shakllari.

8-mavzu. Jamiyat falsafasi.

9-mavzu. Inson falsafasi (falsafiy antropologiya).

10-mavzu. Qadriyatlar falsafasi (aksiologiya)

11-mavzu. Ahloq falsafasi (Etika)

12-mavzu. Nafosat falsafasi (Estetika)

13-mavzu. Globallashuv va barqaror taraqqiyot falsafasi

14-mavzu. Korrupsiyaga qarshi kurashning jahon tajribasi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning ahamiyati

15-mavzu. Yangi taxrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun mohiyati. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.

IV. Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni.

"Falsafa" fani bo'yicha talabning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydi. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa tayyorlaydi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari "5" baholik tizim asosida baholanadi. Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas

Mustaqil ta'lim mavzulari (MT)

Falsafa fanidan mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar yangi innovatsion va kompyuter texnologiyalari qo'llanilgan holda yozma va o'g'zaki shaklda olinadi. Bunda uchta o'zaro bog'liq anglash va ijod qilish faoliyatini o'z ichiga oladi: mashg'ulotlarda olingan axborotni qayta ishlash, qabul qilinganlarni tizimlashtirish, mustaqil shakllantirish, xulosalash va umumlashtirish.

Mustaqil ta'lim uchun quyidagi topshiriqlar tavsiya etiladi:

1. Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish. Bunda talaba har bir seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish va berilgan mavzuni konseptlashtirish uchun kutubxonada ishlashi, elektron resurslardan foydalanishi lozim.

2. "MENING HAYOT FALSAFAM" mavzusida esse yozish

(Ushbu mavzuni yoritishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi)

1. Talaba hayot faoliyatining xronometraji. 1. Kun, 1 hafta ichida qanday ishlar bilan shug'ullanasiz, ularga qancha vaqt sarflaysiz. Dars tayyorlash, uy ishlari, badiiy kitob, gazeta va jurnallar o'qish, sport bilan shug'ullunish, jamoat ishlari, kino, teatr, konsert, muzeylarga borish, televizor ko'rish, internetdan foydalanish, do'stlar, dugonalar bilan uchrashish va hokazolarga qancha vaqt sarflaysiz? Qachon va qanday dam olasiz? Umumiy tahlil.

2. Oilaviy ahvolingiz. Oilangiz necha kishidan iborat, siz uchun hamma narsa yetarlimi? Avlod-ajdodlaringiz (shajarangiz) haqida qanday ma'lumotga egasiz? Uyingizda nechta kitob bor, ulardan qanchasi badiiy kitob? Moddiy boyliklar inson falsafasiga ta'sir qiladimi? Hayotingiz o'zingizga yoqadimi, undan rozimiz? Oilada qanday tadbirlar o'tkaziladi? An'ana tusiga kirgan marosimlar bormi, ulardan qaysilari sizga yoqadi yoki yoqmaydi? Qo'shnilar, qarindoshlar bilan munosabatingiz qanday? Mahallangiz siz yoqadimi, nimasi bilan, mahallangizda do'stlaringiz bormi?

3. O'n yildan kevin o'zingizni qanday tasavvur qilasiz (Sizning hayot falsafangiz). Hayotda qanday orzularingiz bor? O'n yildan so'ng erishmoqchi bo'lgan lavozimga qanday yo'l orqali bormoqchisiz? Uning uchun nima qilish kerak? Ta'lim olayotgan mutaxassisligingiz sizga qanchalik yoqadi? Keyinchalik yana qanday qo'shimcha mutaxassislikni egallamoqchisiz, nima uchun? Sizning hayot yo'lingizga ta'sir ko'rsatgan, hurmat e'tiboringizga loyiq bo'lgan ustozlaringiz bormi? Ularni eslab turasizmi? Qaysi faylasuflarning qarashlari sizga yoqadi yoki yoqmaydi, nima uchun? Sizning hayot falsafangiz nimadan iborat? Hayotingizda qanday badiiy kitoblarni o'qigansiz? Qaysi o'qigan kitobingiz yodingizda qolgan? Qaysi qahramonlarning obrazlari sizga ma'qul? Siz hayotda kimga o'xshashni hohlar edingiz? Sizning idealingiz? Nechta do'stingiz va dushmaningiz bor deb o'ylaysiz? Do'stlaringizning qaysi sifatleri sizga yoqadi? Yashashdan maqsadingiz nima nima? Qanday yangi innovatsion

g'oyalaringiz bor? O'zingiz haqingizda yana nimalarni yoritmoqchisiz? Umumiy hulosalar.

4. Yangi taxrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida shaxs huquq va erkinlariga munosabatingiz qanday. Sizning hayotinizda Konstitutsiyaning o'rni va ahamiyati haqida fikringiz. Yangi qabul qilingan Konstitutsiyaning avvalgisidan afzallik tomonlari qanday,

Eslatma: Mustaqil ish matn va taqdimot shaklida, rasmlar diagrammalar bilan, chiroyli dizaynda tayyorlanadi. Unda barcha qo'yilgan savollarga to'liq, dalillar bilan o'z pozitsiyasini asoslagan holda javob tayyorlash zarur. Mustaqil ish taqdimoti darsdan keyin guruhlarda o'tkaziladi. Unda ta'lim-tarbiyachilar, Yoshlar ittifoqi faollarining ishtiroki maqsadga muvofiq.

3. Tavsiya etilgan asarni o'qish va o'z xulosalarini yozma bayon qilish. Kitob mutolaasi talabaga mustaqillikning qadrini anglashga, yangicha yondashuv va fikrlashga yordam beradi.

Mustaqil ta'lim uchun yana quyidagi adabiyotlar tavsiya etiladi:

1. Abdulla Qodiriy. "O'tkan kunlar".
2. O'tkir Xoshimov. "Ikki eshik orasi".
3. Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar".
4. Jek London. "Muhabbat va nafrat".
5. O'tkir Xoshimov. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar".
6. Paolo Koelo "Al kimyogar"

3 V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)
Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

• dunyo haqidagi eng qadimgi va zamonaviy falsafiy bilimlarni o'rganish asosida professional faoliyatni to'g'ri tashkil etish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish, davlat siyosatiga dahldorlik tuyg'usini shakllantirish; ijtimoiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish, Qadimgi, O'rta asrlar va Yangi davr G'arb falsafasining asosiy g'oyalari, Sharq falsafasining jamiyat taraqqiyotidagi roli, G'arb falsafasi oqimlarining falsafiy mazmun-mohiyatini, G'arb renessansining mohiyati, uning shakllanishiga o'rta asr Sharq ilm-fani va falsafasining ta'sirini, Yangi va eng yangi davr G'arb falsafasining muhim xususiyatlari bo'yicha *tasavvurga ega bo'lishi*;

• yangi ontologiyaning yo'nalishlari, gen ontologiyasi, bioontologiya, tibbiyot ontologiyasining ijtimoiy ahamiyatini, fizik va falsafiy ontologiyaning o'zaro aloqasi va farqlarini, axborotlashgan jamiyatda texnologiyalardan

	<p>foydalanishda inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, tabiat ontologiyasida biosfera va noosferaning o'zmi, ijtimoiy ekologiya, ekologik ta'lim va tarbiya <i>haqida bilishi va ulardan foydalana olishi</i>;</p> <p>• internet ijtimoiy tarmoqlarida axborotni tanlash va ulardan foydalanish usullarini egallashi; o'zining kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilishi, bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, kiberterrorizm, kiberzo'ravonlik (cyberbullying)ga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllangan bo'lishi, globallashuv va barqaror taraqqiyotning omillarini, korrupsiyaning global ma'naviy inqiroz oqibati ekanligini bilishi, unga qarshi kurashda dahldorlik tuyg'usi shakllangan bo'lishi, ijtimoiy jarayonlarni prognozlashtira olish, tana va ruhiy sog'lik, tafakkur xavfsizligini ta'minlash, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, tanqidiy tafakkur imkoniyatlaridan jamiyat barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy nazoratni oshirish va shaxsiy mas'uliyatni oshirish maqsadlarida foydalanish bo'yicha <i>malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak</i>.</p>
4	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; • interfaol keys-stadilar; • blis-so'rov; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>“Falsafa” kursini o'qitish ta'limning kredit tizimi asosida ma'ruza, seminar mashg'ulotlari, taqdimotlar, hamda mavzu bo'yicha mustaqil topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Oraliq nazorat, mustaqil ish shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test sinovini muvaffaqiyatli topshirishi kerak bo'ladi.</p>
6	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa. - Toshkent: - TMU, 2019. 320 b. 2. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa. - Toshkent: TMU, 2019. 340-b. 3. Muhammadjonova L.A. Abdulla Sher, Shodimetova G. Axloq falsafasi. - Toshkent: Vneshinvestprom – 2023. 286 b.

	<ol style="list-style-type: none"> 4. Saifnazarov I. Muxtorov A., Ernazarov D, Usmonov F. Falsafa. o'quv qo'llanma. - Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyat matbaa uyi, 2021. 247 b. 5. Shermuhamedova N. Falsafa. - Toshkent: Idris Abdurauf Nashr, 2021. 667 b. 6. Чумаков А.Н. Философия учебник.– Москва: INFRA-M, 2018. 316 с. 7. Гриб И.Е. Противодействие коррупции. – Москва: Финансово промышленная академия. 2011. 192 с. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi taxriri). - Toshkent: O'zbekiston, 2023. 31 b. 2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. 592 b. 3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. 488 b. 4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiliga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. 5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. 21 b. 6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - Toshkent: O'zbekiston, 2019. 508 b. 7. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon. - Toshkent: O'zbekiston, 2019. 400 b 8. Atamurotov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. 278 b 9. Abu Xomid G'azzoliy Kimyoi saodat/Ikki dunyo saodatiga eltuvchi bilim. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2019. 321 b. 10. Абдуллаева М. Фалсафа фанидан энциклопедик луғат Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2010, 344 б. 11. Aliqulov X. Mas'ul muharrir, mualliflar jamoasi. O'zbekiston falsafasi tarixi. - Toshkent: Noshir, 2013. 387 b.
--	--

	<p>foydalanishda inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, tabiat ontologiyasida biosfera va noosferaning o'ri, ijtimoiy ekologiya, ekologik ta'lim va tarbiya haqida bilishi va ulardan foydalana olishi;</p> <p>• internet ijtimoiy tarmoqlarida axborotni tanlash va ulardan foydalanish usullarini egallashi; o'zining kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilishi, bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, kiberterrorizm, kiberzo'rvonlik (cyberbullying)ga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllangan bo'lishi, globallashuv va barqaror taraqqiyotning omillarini, korrupsiyaning global ma'naviy inqiroz oqibati ekanligini bilishi, unga qarshi kurashda dahldorlik tuyg'usi shakllangan bo'lishi, ijtimoiy jarayonlarni prognozlashtira olish, tana va ruhiy sog'lik, tafakkur xavfsizligini ta'minlash, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, tanqidiy tafakkur imkoniyatlaridan jamiyat barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy nazoratni oshirish va shaxsiy mas'uliyatni oshirish maqsadlarida foydalanish bo'yicha <i>malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.</i></p>
4	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; • interfaol keys-stadilar; • blis-so'rov; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>“Falsafa” kursini o'qitish ta'limning kredit tizimi asosida ma'ruza, seminar mashg'ulotlari, taqdimotlar, hamda mavzu bo'yicha mustaqil topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Oraliq nazorat, mustaqil ish shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test sinovini muvaffaqiyatli topshirishi kerak bo'ladi.</p>
6	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa. - Toshkent: - TMU, 2019. 320 b. 2. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa. - Toshkent: TMU, 2019. 340-b. 3. Muhammadjonova L.A. Abdulla Sher, Shodimetova G. Axloq falsafasi. - Toshkent: Vneshinvestprom – 2023. 286 b.

12. Жўраева С. 100 мумтоз файласуф. Тошкент: Янги аср авлоди. 2015. 400 б.
13. Fitrat. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 2010. 301 b.
14. Jonathon A.C. Brown. Hadith. -Ehngland, 2000.
15. Jaspers. The origin and goal of history. New Haven and London. Yale University Press. 1965. P – 77. (P – 19)
16. Guttenplan. K.S. Hornsby J. Janavay S. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. P – 341.
17. Илин И.В. Урсул А.Д. Образование, общество, природа. - Москва: изд-во МГУ, 2016. 321 с.
18. Кармин А.С., Новикова Е.С. Културология. Киев, Харьков-Минск. 2003. 295 с.
19. Мухаммаджонова Л.А. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. - Toshkent: Universitet, 2017. 175 b.
20. Жалолов А. Фалсафа фанидан изохли лугат. Тошкент: Шарк, 2004, 384 б.
21. Назаров Қ. Жахон фалсафаси қомуси. 1-жилд, Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2022, 920 б.
22. Назаров Қ. Жахон фалсафаси қомуси. 2-жилд, Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2022, 852 б.
23. Qurbonova L. Falsafiy antropologiya va elitologiya uyg'unligining o'ziga xos xususiyatlari. Fals.fan. doktori. Diss. - Toshkent: O'zMU, 2019. 164 b.
24. Лосев А.Ф. Битые миф, космос. – Москва: Мысл, 1993. 356 с.
25. Лосев А.Ф. Философия, мифология, культура. – Москва: Мысл, 1993. 235 с
26. Радугин Эстетика. – Москва: Изд-во сент, 2003. 432 с.
27. Rumiy J. Yetti majlis. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. 346 b.
28. Rumiy J. Masnaviy. 40 rivoyatga sharx.-Toshkent: Navro'z, 2019.235 b.
29. Sayid Muhammad Hotamiy. Islom tafakkuri tarixi. - Toshkent: Minhoj, 2003. 367 b.
30. Saifnazarov I., Saifnazarova F. Yoshlar va oila-Vatan tayanchi. - Toshkent: "Ta'lim nashriyoti" MChJ, 2018. 132 b.
31. Temur tuzuklari. Kitobni nashrga tayyorlovchi. Jumaboy Rahimov. - Toshkent: Shodlik nashriyoti, 2018. 247 b.
32. Xudoyberganov R. O'lim va barhayotlikning falsafiy metodologik tahlili. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. 221 b.

33. Xudoyberganov R.X. Til va kommunikatsiya mutanosibli. – T.: 2021.
34. Sharipov M. Mantiq. – Toshkent: 2003. 345 b.
35. Yassaviy Xoja Axmad Devoni xikmat.–Toshkent: Navro'z, 2018. 289 b.
36. Maxkamov U. Dialog ijtimoiy jarayonlarni tushunishning metodologik omili, falsafa doktori PhD dissertatsiyasi. - Toshkent: 2019. 156 b.
37. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi. –Toshkent: Noshir, 2009. 456 b.
38. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. –Toshkent: Noshir, 2018. 435 b.
39. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. –Toshkent: Innovatsiya-Ziyo 2021. 432 b.
40. Shermuxamedova N.A. Falsafa-Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021.633 b.
41. Shermuxamedova N.A. Korrupsiyaning sabablari va shakllari. - Toshkent: Falsafa va hayot 2019, 39-55 b.

Axborot manbalari

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.gov.uz.
4. www.e-falsafa.uz
5. http://strategy.regulation.gov.uz;
6. www.lex.uz

7	Namangan muhandislik-qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8	Fan/modul uchun mas'ullar: Ismoilov M.- Namangan muhandislik-qurilish instituti, professor Xakimov A.–Namangan muhandislik-qurilish instituti, dotsent Shaydullayev N.- Namangan muhandislik-qurilish instituti, dotsent Mirzaxalov X. - Namangan muhandislik-qurilish instituti, katta o'qituvchi
9	Taqrizchilar: Nuriddinov A. - Namangan davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD. Ramilova Z. - Namangan davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD.